

SAHROLANISHGA QARSHI KURASHISHDA YOSHLARNING HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH

Jo‘rayeva Hulkaroy Tavakkal qizi

Namangan davlat Universiteti

Yuridik fakulteti 2-bosqich

YU-HU24-guruh talabasi

jorayevhulkaroy@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda dunyoning global muammosiga aylanayotgan sahrolanish hamda cho‘llanishga qarshi kurash, ushbu jarayonda yoshlar ishtirokining o‘rni, huquqiy jihatdan yondashuv haqida so‘z yuritiladi. Hamda sahrolanishga qarshi kurashda yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasida olib borilayotgan ishlar va O‘zbekiston Respublikasida bu bo‘yicha qabul qilinayotgan qonun hujjatlari hamda davlat dasturlari bo‘yicha olib borilayotgan ishlar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Sahrolanish, ekologiya, huquqiy madaniyat, atrof muhitni muhofaza qilish, ekologik huquq, ekologik ta‘lim, ekologik ong, tabiatni asrash, suvlardan to‘g‘ri foydalanish, suvlarni qayta ishlash, barqaror rivojlanish.

Abstract: This article discusses desertification and the fight against desertification, which is currently becoming a global problem in the world, the role of youth participation in this process, and the legal approach. It also covers the work being done to improve the legal culture of young people in the fight against desertification, and the work being carried out in the Republic of Uzbekistan on the adoption of legislative acts and state programs in this regard.

Keywords: Desertification, ecology, legal culture, environmental protection, environmental law, environmental education, environmental awareness, nature conservation, proper use of water, water recycling, sustainable development.

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема опустынивания, которое в настоящее время становится глобальной проблемой, борьба с опустыниванием, роль участия молодежи в этом процессе и правовой подход. Также освещается работа по совершенствованию правовой культуры молодежи в борьбе с опустыниванием, а также работа над законодательными актами и государственными программами, принятыми в Республике Узбекистан в этой области.

Ключевые слова: Опустынивание, экология, правовая культура, охрана окружающей среды, экологическое право, экологическое образование, экологическая осведомленность, охрана природы, рациональное использование воды, переработка воды, устойчивое развитие.

Kirish

Hozirgi kunlarda cho‘llanish masalasi dunyo bo‘ylab va mamlakatimiz bo‘ylab ham muammo darajasiga yetmoqda. Sahrolanishga qarshi kurashishda nafaqat davlat organlari, balki yoshlar hamda jamiyat azolari ham faol ishtirok etishlari o‘z g‘oyalari bilan cho‘llanishni oldini olish tabiatni asrashga o‘z xissalarini qo‘shishlari mumkin. Bugungi kunda yoshlarning huquqiy madaniyati va ekologik madaniyati yuqori darajada bo‘lmasa atrof muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, suvlarni tejash hamda qayta ishlash masalalari bo‘yicha qabul qilingan qonun hujjatlari va davlat dasturlari o‘z samarasini bermaydi. Bu bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida ham bir necha qonun hujjatlari ham davlat dasturlari ishlab chiqildi hamda qabul qilindi.

Jumladan:

2023-yil 30-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan norma;

Suv kodeksi (30-iyul 2025-yil)

Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish (Vazirlar Mahkamasi 2022-yil 25-yanvar 41-sonli qaror)

Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun.

2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi hamda shunga o‘xshash bir qonun hujjatlari ishlab chiqildi.

O‘zbekiston nafaqat ichki qonunlar, balki xalqaro darajada ham masuliyatni bo‘yniga olgan jumladan:

BMTning Cho‘llanishga qarshi kurashish konvensiyasi

(UNCCD)O‘zbekiston 1995-yilda ushbu konvensiyaga qo‘shilgan.

LDN(Land Degradation Neutrality) Yer degradatsiyasining neytralligiga erishish bo‘yicha bir necha maqsadlar belgilangan.

Bu hujjatlar jamiyatning ekologik ongini rivojlantirish, huquqiy bilimlarni yuksaltirish va jamiyatning ongida tabiatni asrash tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda tabiatga nisbatan masuliyat hissini uyg‘otishga yordam beradi. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va Iqlim o‘zgarishi Milliy Qo‘mitasi tashkil etilganligi ham bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Asosiy qism

Sahrolanish muammosi global miqyosda muhokama qilinayotgan ekologik muammolardan biri bo‘lib, unga qarshi kurashish, yoshlarning ongida ekologik ong va madaniyatni uyg‘otish maqsadida konstitutsiyaviy darajaga ko‘tarildi. Shuningdek 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi konstitutsiyasida shunday norma belgilandi yani :

Davlat Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muxofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan chora tadbirlar ko‘radi , degan hayotiy zaruratga mos norma belgilandi. Shu bois, O‘zbekistonda Orol muammosi oqibatlarini bartaraf qilishga alohida e‘tibor qaratildi. Ayniqsa yoshlar ongida ekologik

madaniyatni oshirish uchun Orol dengizi tubining 2,5 mln gektarida yangi “Yashil makon” yaratilganligi katta sababchi bo‘ldi. Ayniqsa yoshlarning ongida huquqiy madaniyatni yuksaltirish saholanishga qarshi kurashishga muhim omil bo‘la oladi. Huquqiy madaniyat-bu shaxsning qonunlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi hisoblanadi. Agar yoshlar ekologik qonunchilikni yaxshi bilsa, ular tabiatni asrashga ongli ravishda yondashadi. Shu sababli mamlakatimizda so‘ngi yillarda ishlab chiqilayotgan dasturlarning barchasi yoshlarda hamda jamiyatda ekologik madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasida Suv Kodeksining qabul qilinishi va ushbu kodeksning asosiy vazifalari:

Aholini, iqtisodiyot tarmoqlarini va ekologik tizimlarni suv bilan barqaror ta‘minlashga erishish hamda uni saqlab qolish;

Iqlim o‘zgarishini hisobga olgan holda suvlarni oqilona boshqarish va ulardan foydalanish va tejash;

Suvlarni bug‘lanish, ifloslanish va kamayib ketishdan muhofaza qilish;

Suvlarning zararli ta‘sining oldini olish va uni bartaraf etish;

Suv obyektlari holatini yaxshilash ;

Suvga doir munosabatlar sohasida iqtisodiy mexanizmlarni shu jumladan davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;

Yuridik va jismoniy shaxslarning suvga doir munosabatlar sohasidagi huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

Suv masalalari bo‘yicha davlatlararo hamkorlikni rivojlantirish, kabilar etib belgilab qo‘yildi.

Ushbu kodeksni qabul qilinishi yoshlar ongida suv resusrlaridan oqilona foydalanish bo‘yicha huquqiy bilimlarni oshiradi, ekologik masuliyat hamda huquqiy ongni shakllantiradi, yoshlarni ekologik faoliyatga jalb qiladi. Yani yoshlar orasida ko‘ngillilar tomonida ekologik forumlar yaratilishi atrof muhitni asrash tadbirlarida faol ishtirok etishini taminlashga zamin yaratadi.

Vazirlar mahkamasi tomonidan 2022-yil 25-yanvarda 41-sonli qaror qabul qilindi ushbu qaror: Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish konsepsiyasi. Konsepsiyaning asosiy maqsadi va vazifasi orolbo‘yi mintaqasida duch kelayotgan murakkab ekologik ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni yumshatish hamda bartaraf etish uchun tizimli innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga bag‘ishlanadi.

Strategik milliy dasturlar: hukumat darajasida cho‘llanishga qarshi bir qancha yirik dasturlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa yoshlar o‘rtasida ham ko‘ngillilar tomonidan “Yashil makon” umummilliy loyihasi tashkil etilmoqda bu esa cho‘llanishga qarshi eng asosiy qurol hisoblanmoqda. Maqsad: Yiliga 200 million tup ko‘chat ekish orqali shaharlar va cho‘l chegaralarida “yashil belbog‘lar” yaratish. 2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi ham qabul qilinib bu hujjatda yerlarni degradatsiyaga uchrashini to‘xtatish va cho‘llanishga qarshi kurashishning ustuvor yo‘nalishlari belgilangan.

Xalqaro munosabatlar: BMTning cho‘llanishga qarshi kurashish konvensiyasi hamda LND ham ekologik munosabatlarni tartibga solish uchun azolik hisoblanadi. Ular yer degradatsiyasining neytralligiga erishish bo‘yicha milliy maqsadlar belgilagan.

Ushbu qonun hujjatlar nafaqat ekologik muammolarni bartaraf etishda, balki yoshlar ongida ekologik madaniyatni yuksaltirish atrof muhitni muhofaza qilish va ushbu qonunlar asosida turli xil innovatsiyalar yaratishga xizmat qiladi. Hoziri kunda jamiyatimizda bilimli yoshlarning o‘rni yuqori. Ularning bilim olishi hamda bilim olish yo‘lida turli yangiliklar yarata olishi, tabiatni asrash suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalari yuzasidan turli yangiliklar yaratishi suvlarni qayta ishlash hamda ekologiyani asrash bo‘yicha ommaviy axborot vositalari orqali turli eshittirishlar olib borishlari, yangi qonunlarni o‘rganib jamiyatda aholi orasida targ‘ibot ishlarini amalga oshirishlari uchun barcha sharotlar yaratilgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda saholanish insoniyat uchun jiddiy ekologik muammo hisoblanadi. Ushbu ekologik muammoni hal etishda nafaqat davlat yoki xalqaro tashkilotlar balki jamiyat va yoshlarning o‘rni ham yuqori hisoblanadi. Qachonki jamiyatda yuqori huquqiy ong va madaniyat bo‘lsa qonunlarga bo‘ysunish va tabiatga bo‘lgan hamda uni muhofaza qilishga bo‘lgan ishtiyoq bo‘ladi. Yoshlarning ekologik madaniyatini yuksaltirish orqali, ularni tabiatni muhofaza qilishga jal etish, qonunchilikka hurmat ruhida tarbiyalash saholanishga qarshi kurashning muhim chora tadbirlaridan biri xisoblanadi. Shu bois ta‘lim tizimida davlat organlari hamda jamoat tashkilotlari tomonidan yoshlar o‘rtasida ekologik masalar yuzasidan huquqiy bilimlarni targ‘ib qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada ekologik madaniyatli, tabiatni asrashga intiladigan hamda huquqiy ongga ega bo‘lgan jamiyatda saholanishni oldini olish va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta‘minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprel)
2. O‘zbekiston Respublikasi Suv Kodeksi (2025-yil 30-iyul)
3. Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish (Vazirlar Mahkamasi 2022-yil 25-yanvar 41-sonli qaror)
4. Yangilanayotgan konstitutsiya 100 savolga 100 javob (2023)
5. Tabiatni muhofaza qilish tog‘risidagi qonun (1992-yil 9-dekabr)
6. 2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi.
7. Yer kodeksi (1998-yil 7-yanvar)
8. BMTning cho‘llanishga qarshi kurash konvensiyasi. (2003-yil 31 oktyabr)